



# Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan

Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!2025-yil 13-may, seshanba,  
56 (24.082)-sonO'zbek xalq  
maqoliIshlagan  
xor  
bo'lmas

## O'ZBEKISTON - QIRG'IZISTON TURIZM FORUMI



Samarqand shahrida O'zbekiston - Qirg'iziston turizm forumi bo'lib o'tdi. Unda Qirg'iz Respublikasidan kelgan va Samarqanda faoliyat ko'rsatayotgan sayyohlik sohasi mas'ullari, tadbirkorlar ishtirok etdi. Shuningdek, forumda ayni paytda tashrif bilan mamlakatimizda bo'lib turgan Qirg'iz Respublikasi Jogorku Keneshi Torag'asi o'rinosari Nurlanbek Azigaliyev qatnashdi.

O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi raisi Umid Shodiyev mamlakatimizda turizmni rivojlanтиш, xususan, Markaziy Osiyoda yagona sayyohlik yo'naliшини tashkil etish, bu borada Qirg'iz Respublikasi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan ishlар haqidа so'z yuritdi.

Ta'kidlanishicha, 2024-yilda O'zbekistonga qirg'izistonlik 2 milliondan ortiq sayoh kelgan. Bugungi kunda O'zbekiston va Qirg'iziston shahrlari o'rtaсиda har kuni 11 ta aviaqatnov amalga oshirilmoqda. Ikki davlat fuqarolaroli ID karta orqali chegaradan o'tib-qaytadi.

Qirg'iz Respublikasi turizm

taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash fondi prezidenti Q.Risaliyev O'zbekiston va Qirg'iziston o'rтasida turli sohalardagi o'zaro manfaatli hamkorlik turizm yo'naliшинда ham jalal rivojlanib borayotganini ta'kidladi. Mazkur forum esa bu boradagi ishlарni yanada jadal-lashtirishga xizmat qilishini qayd etdi.

Forumda ikki mamlakat turizm salohiyati, mavjud imkoniyat va resurslari haqidа soha mas'ullari tomonidan taqdimatlar o'tkazildi.

Bundan tashqari, forumda Samarqand shahridagi xalqaro turizm markazi, "Ipak yo'li" xalqaro turizm va madaniy meros universiteti faoliyatini haqidа ma'lumot berildi.

Joriy yilning fevral oyidan boshlab Samarqand shahri va Urgut tumanini bog'lovchi temiryo'l qurishga kirishilgan edi.

Uzunligi 55 kilometr bo'lgan yangi tarmoq "Toshtemiryo'lloyiha" mas'uliyati cheklangan jamiyatni tomonidan ishlab chiqilgan bosh reja asosida, zamonaviy muhandislik yechimlari hisobga olingan holda barpo etilmoqda.

Samarqand shahar hududidan boshlanuvchi yangi temiryo'l tarmog'i Jomboy tumanidagi "MAN" zavodi yaqinidan 4R-238 avtomobil yo'lini kesib, Zarafshon daryosi bo'ylab o'tadi va ushbu daryo ustida barpo etiladigan ko'priq orqali Urgut tumaniga boriladi.

Kecha yangi temiryo'l tarmog'i ni tortish ishlari boshlandi. Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boyboev yangi temiryo'l tarmog'i aholining uzog'ini yaqin qilishi, turizm, savdo-sotiq va ishlash chiqarilayotgan mahsulotlarni eksport qilish imkoniyatini yanada oshirishini ta'kidladi.

## Urgutga temiryo'l tarmog'i tortish ishlari boshlandi



"O'zbekiston temir yo'llari" AJ kapital qurilish direksiyasi boshlig'i o'rinosari Anvar Allamuratovning ta'kidlashicha, temiryo'l o'tadigan yo'ning 25 kilometriga temiryo'l tarmog'i tortish uchun quri-

lish-montaj ishlari olib borilgan. Shuningdek, ikkita vokzal qurilishi boshlangan bo'lib, birinchisi Urgut tumaniga markazida, ikkinchisi Jartepda hududida barpo etilmoqda.

## TERSAK RASMAN "TURIZM QISHLOG'I" BO'LDI



Urgut tumanidagi Tersak mahallasiga "turizm qishlog'i" maqomi sertifikati topshirildi. Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadbirda Turizm qo'mitasi raisi U.Shodiyev, viloyat va Urgut tumanı hokimliklari mas'ullari ishtirok etdi.



Tersak Taxi qoracha dovoniy yoqasida, tog'lar orasida joylashgan mahalla. To'rt qishloqdan iborat mahallaning go'zal tabiat, musaffo havosi kishini o'ziga rom etadi. Tersakka 2021-yilda turizm qishlog'i maqomi berilib, hudud infratuzilmasi yaxshilandi, yangi mehmon uylari tashkil etildi, har bir xonadonda sayyohlarni qabul qilish uchun sharoit yaratildi. Bugungi kunda

## Qo'shrabotda baxshilar festivali



gan olimlar, shoir va yozuvchilar, madaniyat xodimlari, keng ja-moatchilik vakillari qatnashdi.

### G'OLIBLARNI ANIQLASH OSON KECHMADI

Festivalning ikkinchi kunida "Qo'shrabot navosi-2025" respublika baxshichilik tanloving asosiy qismi tuman markazida joylashgan 1-ixtisoslashtirilgan maktab-inter-

natida tashkil etildi.

Unda 10-17 yoshli, shuningdek, 18 va undan katta yoshdagani baxshilar dostonlardan parchalar hamda termalar kuyladi.

- Tanlova respublikamizning turli hududlaridan kelgan 71 nafr baxshi ishtirok etgan bo'lsa, har birining o'ziga xos ovozi, o'ziga xos yo'naliши bor, - deydi O'zbekiston xalq baxshisi Rasul Umirov. -

Shuning uchun ham biz, hakamlar hay'ati a'zolariiga tanlov g'oliblarini aniqlash osон kechmadi. Tanlov bahona tajriba almashinyapti, mahorat darslari tashkil qilinib, yangi ovozlar, yangi iste'dodlar kashf etilyapti.

### TOSHDAH YASALGAN EGAR 3 MING DOLLARGA SOTILDI

Festival doirasida hunarmand-chilik mahsulotlari ko'rgazmasi namoyish etildi. Ko'rgazmada viloyatimizning shahar va tumanlaridan 31 nafr hunarmand qo'l mehnati mahsulotlari bilan ishtirok etdi.

- Bunday ko'rgazmalarning tashkil etilganidan xursandmiz, - deydi qo'shrabotlik hunarmand, o'yama kor Kenjabek Ernazarov. - Bu biz, hunarmandlarning mehnatini yuzaga chiqarishda, mahsulotlarimizga xaridor topilishida qo'l keladi. 30 yildan beri tosh o'yamkorligi bilan shug'ullanaman. Marmar toshdan turli narsa-buyumlarning maketlari ni tayyorlayman. Yaqinda toshdan egar yasagan edim. Bu mahsulot turkiyalik sayyohlar e'tiborini toribdi. Tosh egar 3 ming dollarga sotildi.

(Davomi 3-sahifada) >>>

# MAKTABDA 11 YIL O'QISH SHARTMI?

**Ikki yil avval bir anjumanda turkiyalik rektor so'zga chiqib:**  
"Institutimizda 25 ming nafar talaba o'qydi. Ularning 5 ming nafari pedagogikadan tahsil olsa, qolgan 20 ming nafari kasb-hunar o'rganadi", degan edi. Demak, Turkiyada kasb-hunar o'rganishni istovchi yoshlar ko'p ekan. Xo'sh, bizda-chi, degan savol tug'iladi. Bugun viloyatda 69 ta professional ta'lif muassasalarini, ya'ni 37 ta kasb-hunar maktabi, 12 ta kollej va 20 ta texnikum faoliyat yuritmoqda. Professional ta'lif muassasalarida 135 ta kasb bo'yicha 47569 nafar o'quvchi tahsil olmoqda.



To'g'ri, respublikamizda maktab bitiruvchilarining barchasini oliy ta'limga qamrab olishning imkoniy yo'q. Shuningdek, hamma ham oliy ta'limga o'qishni istamaydi, to'g'riroq i, o'qishga qiziqmaydi. O'qishga ishtiyogi sost o'quchilarini 9-sinfdan kasb-hunarga yo'naltirilgan professional ta'lif muassasalarini ochilgan. Ammo yoshlarimiz kasb-hunar egasi bo'lishni istaydim? Bu borada soha vakillarining fikrlariga qiziqdiq.

- Oliy ta'limga o'qishni xohlamaydigan bitiruvchilar tezroq maktabni bitirib, chetqa ketishini istaydi, - deydi Toyloq tumanidagi 22-umumiyy o'rta ta'lif maktabi direktori Dilafro'z Ulug'bo'yeva. - Bozorimiz yaqin, xoriga ketma-ganlari savdo bilan shug'ullanadi, restoran, kafelarda ishlaysidi. Ayrim ota-onalar farzandining oliy ta'limga kira olmasligini bilsa-da, maktabni bitirsa bo'ldi qabilida maktabda o'qitaveradi. Lekin yaxshi o'qimay-

digan bolalar ham ertaga oliy ta'lif muassasasiga huijat topshiradi. Ularning hisobidan maktab reytingi tushib ketadi. Bi boroda ko'rsatkichimiz yomon emas. Tumanning chekka hududlarida bu masha juda og'ir.

Keyingi yillarda Toyloqdagi yettita kollejdan uchtasini maktab qilishdi. Bor-yo'g'i ikkita kollej kasb-hunar maktabiga aylantirildi. Endi shurnari kuchaytirish, moddiy-teknik bazasini boyitish, o'qishi sost bolalarni aniq, maqsadli kasbga yo'naltirish kerak.

- Maktabimizda kollej va texnikumlariga o'qishga kirishni istovchi o'quchilar talaygina, - deydi Oqdaryo tumanidagi 22-umumiyy o'rta ta'lif maktabining nemis tili fani o'qituvchisi, "Shuhrat" medali sohibi Charos Nurmanmatova.

- Masalan, o'zim ham darsdan keyin tuman markazida joylashgan "Aqziyosi" o'quv markazida yoshlarga nemis tili o'rgataman. O'quv marka-

zida tahsil olayotganlar ichida maktab o'quvchilaridan tashqari 30-35 yoshli fuqarolar ham bor. Ular Germaniyaga kasbga o'qish uchun tayyorlanyapti. O'quvchilar nemis tilidan B1 yoki A2 darajali sertifikat olsa, Germaniyaga o'qish yoki ishlash uchun ketadi. Markazda yuzga yaqin yoshlar o'qiapti. Tuman hokimligi tomonidan ularning o'qishi uchun har biriga 200 ming so'mdan to'lab berilishi. O'zim ham avgust-sentabr oylarida Germaniyada malaka oshirib keldim.

Chet tilini biladigan yoshlarga bugun imkoniyatlar keng. Shu o'rinda bir taklifim bor. Nemis tili maktablarida 1-sinfdan o'tilsa, bolalar tilni yaxshi o'rganadi. Tuman bo'yicha faqat bizning maktabimizda nemis tili 1-sinfdan o'rnatiladi.

- Bugun yoshlarimizda oliy ta'lif muassasalariga o'qishga kirish ishtiyogi kuchli, - deydi Samarqand shahridagi 81-umumiyy o'rta ta'lif maktabi direktori Alovuddin Ochilov. - Oliy ta'limga kira olmaganlari ham yana ikki-uch yil tayyorlanib, o'qishga kiriyapti. Yoki kam ball to'plagan bo'lsa ham xususiy oliy ta'lif muassasalariga kirib o'qiapti.

Yoshlar ko'proq pul topish maqsadida savdo sohasiga, tadbirkorlik va biznesga qiziqyapti. Maktabimiz joylashgan Qorasuv maskani misolda aytadigan bo'lsam, maskanga quruvchi, sante-nik, buyoqchi, oshpaz, mebelsoz kabi kasblar juda kerak. Ammo bunday kasb egalari boshqalarde har kuni kostyum-shim kiyib ishga bormaydi, maoshi ham uncha ko'p emas. Shuning uchun yoshlar kasb-hunar o'rganishni uncha xohlamaydi.

- Bida har yili 9-sinf bitiruvchilarining ayrimlari kasb-hunar maktabiga ketadi, - deydi Toyloq tumanidagi 21-umumiyy o'rta ta'lif maktabi direktori o'rnbosari Sayfulloxon Temirxonov. - Masalan, joriy yilda 9-sinf bitiruvchilarining 30 nafarga yaqini kasb-hunar maktabiga ketish istagini bildirgan. Maktabimiz yaqinida kasb-hunar maktabi bor.

Ushbu fikrlardan bilish mumkinki, har bir hududda kasb-hunar o'rganishga qiziqish turilcha. Ba'zilar oliy ma'lumoti bo'lish ortidan yaxshi daromad topishni istasa, boshqalar xoriga ishga ketib, mo'may pul to-

## Dolzarb mavzu

pishni xohlaydi. Lekin oramizda o'z kasbining ustasi bo'lib, uning ortidan yetarli mablag' topayotganlar ham yo'q emas. Masalan, bugun mahoratlari tikuvi chi, tajribali oshpaz maktab direktoridan ko'p pul topadi. Faqat yoshlarni kasbga yo'naltirish ota-onalarga bog'iq. Avallari farzandlar ota kasbini davom ettirishgan, ya'ni ota kasbi ortidan mo'may daromad topgan. Hozir ham oz bo'lsa-da, ayrim hududlarda bunday udum saqlanib qolgan. Kattaqo'rg'on tumanining Payshanba shaharchasida holvpazlik bilan shug'ullanib kelayotgan oilalar ota kasbini asrlar davomida saqlab kelayotgani hech kimga sur emas.

Aslida xorijda ishlashni istovchilar ham 9-sinfdan biron kasb o'rgangani maqsadga muvoqiq. Sababi xorijda pul topish oson emas. Ayniqsa, qo'lida hunari yo'q odam eng past darajali ishni bajarishiga to'g'ri keladi. Qo'lida kasbi bor va chet tilini biladiganlar xorijda ish topishda qaynalmaydi. Buni ota-onalar farzandlariga tushuntirishi va ularni biron kasbga yo'naltirish kerak.

Darhaqiqat, ayrim ota-onalar farzandining oliy ma'lumot olishi va davlat tashkilotlari ishlasini istaydi. Hatto farzandi maktabda yaxshi o'qimasa ham uni kasb-hunarga yo'naltirmaydi.

- O'g'lim maktabda yaxshi o'qimaydi, - deydi kattaqo'rg'onlik Nilufar Qahhorova. - Ammo men uning oliy ma'lumoti bo'lishini xohlayman. Davlat tashkilotida ishlaydigan kishilarga havisim keladi. Shuning uchun o'g'limni xususiy oliy ta'lif muassasalaridan birida o'qitmoqchiman.

Keyingi yillarda oliy ta'lif muassasalariga o'qishga kirish qiyin bo'lmay goldi. Ayniqsa, xususiy oliy ta'lif muassasalarini kam ball to'plagan abiturientlarni ham o'qishga qabul qilyapti. Shuning uchun ham ayrim yoshlar diplom olish maqsadida xususiy oliy ta'lif muassasalariga kirib o'qiapti. \*\*\*

Masalaning yana bir tomoni bor. O'tgan o'quv yilida viloyatdagi 1248 ta maktabni 49315 nafer bitiruvchi turgatgan. Shuningdek, 82 ming nafarga yaqin bola 1-sinfga qabul qilingan. Bu degani, bitiruvchilardan 1,5 baravar ko'p o'quvchi maktabga qabul qilinyapti. Bu raqam har yili shu tarzda oshib borsa, kelgusida o'quvchilarga maktablar yetishmaydi. Shundoq ham viloyatimizda ikki va undan yuqori koefitsiyentli maktablar ko'p.

Shuning uchun bemaqsad o'qiyotgan o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish lozim. Buning ortidan avvalo, o'quvchi kasbi bo'jadi, maktablar koefitsiyentli me'yorlashadi, ba'zi kasbga ehtiyoji bor sohalari o'rnini ladi. Maktabda 11 yil o'qish shart emas.

Xurshida ERNAZAROVA.



## Mullako'rpa da anjir ekilmagan tomorqa qolmadidi

Kattaqo'rg'on tumani aholisi uchun "Agrobank" tomonidan 100 mingta anjir va xurmo ko'chatlari tarqatilgan edi. Jumladan, tumanning Mullako'rpa mahallasidagi aholi tomorqalariga 2500 tup anjir ko'chati o'tqazildi.

Mahallada shu paytg'a qadar aksariyat xonadonlarida anjir yetishtirilardi. Ushbu xonadonlarning har biriga 5-10 tadan, shu paytgacha anjir yetishtirmagan tomorqa egalariiga 50 tadan ko'chat tarqatildi.

- Anjir yetishtiradigan qo'shnilariga havas qilardim, - deydi shu mahalladagi yashovchi Oybek Aminov. - Shu yil men ham tomorqamga anjir ko'chatini o'tqazishni niyat qilib turgandim. "Agrobank" ko'magida mahallamizga keltirilgan ko'chatlardan 50 ta oldim. Bu ko'chatlar yaqin 3-4 yilda yashxigina daromad keltirishiga ishonaman. Asosini, qo'shnilarim kabi biz ham oila'miz bilan anjir parvarishlaysidan bo'ldik. Farzandlarini ham xursand.

Azamat ota Bo'ronov anjir yetishtirib, har yili mo'l hosil olib, ro'zg'origa qo'shimcha daromad keltirayotgan tajribali dehqonlardan biri. U shu paytg'a qadar tomorqasidagi 10 totix maydonda 20 tup anjir daraxtini parvarishlab kelardi.

- Esimni taniganimdan beri anjir yetishtirish bilan shug'ullanaman, desam mubulag'a bo'lmaydi, - deydi u. - Daromadi ham yaxshi. Har biri tupidan o'rtacha 100 kilogram hosil olish mumkin. Uning kilogrammini 15-20 ming so'mdan sotamiz. Yaqindan mahallamizga Turkiyadan keltirilgan anjir va xurmo ko'chatlarining har biridan 5 tadan olib, tomorqaga o'tqazdim. Aytishlaricha, ular anchagina serhosil ekan. Buni vaqt ko'rsatadi, albatta. Shu yil ekkan ko'chatlarimiz 3 yildan keyin hosilga kiradi.

Bank xodimlari tashhabus bilan tarqatilgan ko'chatlar tomorqalarga o'tqazilgach, Mullako'rpa da anjir ekilmagan xonadon qolmadidi. Bu bilan hududda "Bir mahalla - bir mahsulot" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami yana-denga kengaydi.

To'Iqin SIDDIQOV,  
Husan ELTOYEV  
(surat).

## Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili

ton va Markazi Osiyoda atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlimga qarshi kurashish, tabiiy resurslardan barqaror foydalanish va ularni boshqarish sohasida aniq harakatlar va tadbirlar amalga oshirishda hamkorlikni davom ettirishga xizmat qiladi. Maqsad O'zbekistonning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan barqaror, iqlim sharoitiga chidamli va emissiyasi kam bo'lgan rivojanishiga hissa qo'shish va turli xalqaro konvensiyalar, shartnomalar shartlarini bajarishda qo'llab-quvvatlashdir.

Qolaversa, O'zbekiston Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi va Qirg'iziston Tabiiy resurslar, ekologiya va texnik nazorat vazirligi o'rta-sida Markazi Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universitetida (Green University) kadrler tayyorlash uchun kvota ajratish to'g'risida memorandum imzolandi. Unqa ko'ra, Qirg'iziston talabalariiga 9 tagacha kvota o'rinnari ajratiladi (bakalavriat ta'lif yo'nalishlari uchun 5 tagacha, magistratura ta'lif yo'nalishlari uchun 4 tagacha). Memorandumdan maqsad mintaqaviy hamkorlik va barqaror rivojanish, atrof-muhitni o'rganish va iqlim o'zgarishi sohasida salohiyati kadrlar sonini oshirishdan iborat.

BMT Bolalar jamg'armasining (UNICEF) O'zbekistondagi vakolatxonasi o'rta-sida strategik hamkorlik bo'yicha o'zaro anglashuv memorandum tuzildi. Unga ko'ra, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishiga moslashish va salbiy oqibatlarini ta'sirini yumshatish, tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish va bolalar uchun muhim xizmatlarning inklyuziv, barqaror va ekologik xavflarga tayyor bo'lishini ta'minlash yo'li bilan bolalar va yoshlarning chidamliligini mustahkmalash sohalarida o'zaro manfaatlil hamkorlik rivojanitiriladi. Shuningdek, dolzarb ekologik masalalarda bolalar ishtiroki kengaytiriladi va ularning salomatligini ta'minlash ustuvor vazifasi aylantiriladi.

Bahora BOLIBYEVA,  
Samarqand davlat universiteti talabasi.



ligiga olib kelmoqda. Bunday dolzarb muammoga yechim sifatida esa yashil iqtisodiyotga o'tishning birinchibosqichi sifatida qayta tikanuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol, geotermal) sarmoyani oshirish va texnologiyalarni import qilishni rag'batlantrishni yo'liga qo'yish lozim. Shuningdek, energiya samadaroligini oshirish uchun "Yashil mahalla" loyhalarini orqali uylar va kichik biznes obyektlarini quyosh panelari bilan ta'minlash lozim.

Suv tanqisligi va qishloq xo'jaligida isrofgarchilik ham muhim muammollardan hisoblanadi. Iqlim o'zgarishi tuyfli O'zbekistonning ko'pgina hududlarida suv resurslari kamaymoqda. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi usullari hali ham an'anaviy bo'lib, bu yer osti suvlarini haddan tashqari ishlashit va ekinlarni ortiqcha sug'orish bilan bog'iq. Muammoning oldini olish uchun esa sunvi tejashning innovatsion texnologiyalarni qo'llash, ayniqsa, tomchilatib sug'orish tizimini kengaytirish zarur. Buning uchun hukumat qishloq xo'jaligiga subsidiyalarni ko'paytirib, ekologik agrobiznesi rivojanitirishi kerak.

Ekologik savodxonning pastligi ham kishillarda atrof-muhitni asrashga befardlik va chiqindilarni qayta ishlashtirishga qiziqishning kam-

muhokama etildi. Muhogamaning asosiy mavzularidan biri global miqyosdagi ekologik halokatning yaqqol namunasini bo'lgan Orol dengizi iqliroqni edti. Mutaxassislar va hukumat vakillari zarar ko'rgan hududlarda yernari tiklash, cho'llanishga qarshi kurashish va iqlim o'zgarishining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini kamaytirish bo'yicha barcha yechimlarni ko'rib chiqdi.

Samarqand forumining yakuniy hujjati - "Yashil" rivojanishning Mintaqaviy konsepsiysini iqlim o'zgarishi sohasida Markazi Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universitetida (Green University) kadrler tayyorlash uchun kvota ajratish to'g'risida memorandum imzolandi.

Unqa ko'ra, Qirg'iziston talabalariiga 9 tagacha kvota o'rinnari ajratiladi (bakalavriat ta'lif yo'nalishlari uchun 5 tagacha, magistratura ta'lif yo'nalishlari uchun 4 tagacha). Memorandumdan maqsad mintaqaviy hamkorlik va barqaror rivojanish, atrof-muhitni o'rganish va iqlim o'zgarishi sohasida salohiyati kadrlar sonini oshirishdan iborat.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston 2023-yilda COP28da rasman ishga tushirilgan sanoat dekarbonizatsiyasi va global darajada ja-moaviy harakatni kuchaytirish bo'yicha tajriba almashtish uchun platforma bo'lib xizmat qiluvchi, yuqori iqlim ambitiyalariga ega 43 mamlakatning ixtiyoriy koalitsiyasi hisoblangan Climate Clubga a'zo bo'ldi. Shuningdek, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatiga (GIZ) bilan "Atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlimga qarshi kurash va tabiiy resurslardan barqaror foydalanish sohasida hamkorlik to'g'risida"gi anglashuv memorandum imzolandi. Mazkur memorandum O'zbekis-

## Yashil iqtisodiyot - barqaror rivojanish asosi

**Yashil iqtisodiyot** – insonning resurslarga nisbatan mas'uliyatlari munosabatini nazarda tutuvchi iqtisodiy rivojanish modeli. U iqtisodiy o'sish va tabiiy boyliklarni saqlab qolish o'rta-sidagi oqilona murosani topishga qaratilgan. Bugun yer osti va yer usti boyliklari ayovsiz sarflanadigan bo'lsa, yaqin kelajakda katta muammollar yuzaga kelishi turgan gap. Bugungi kunga kelib O'zbekiston mintaqadagi iqlim o'zgarishi va ekologik muammolarga qarshi kurashish va barqaror rivojanishni ta'minlashda muhim qadamlarni tashlamoqda. Samarqand iqlim forumi esa O'zbekistonga bir qator afzalliklar taqdim etdi. Xususan, forum O'zbekistonning mintaqaviy va xalqaro ekologik masalalarda yetakchi davlat ekanini ko'rsatdi. Bu esa butun dunyo davlatlari, ekologik tashkilotlar, shuningdek, tashqi investorlarning mamlakatga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Bugungi kunda iqlim o'zgarishining global miqyosdagi salbiy ta'siri barqaror rivojanishga jiddiy to'siq bo'layotgani hech kimga sir emas. Bu borada xalqaro hamjamiyat yashil iqtisodiyot konsepsiyasiga tobora





# Past Darg'omdagi ziyoratgohlarni bilasizmi?

Qadimda Past Darg'om Anhor, Ko'cha Malik nomlari bilan ham yuritilgan va hududda tarixiy joylar ko'p bo'lgan. Hozir tumanda yuzdan ziyod mahalla, o'nlab ziyoratgoh va tarixiy maskanlar bor. Biroq aksariyatining tarixi o'rganilmagan.

## OISHIQ OTA AMIR TEMURNING HARBIY AMIRI BO'LGAN

Ana shunday tarixiy joylardan biri Oshiq ota ziyoratgohidir. Oshiq ota deyilishiga sabab o'zbeklarning minglar va turkmanlar guruhida oqshiq urug'i bor. Minglar va turkmanlarning oqshiq urug'i Past Darg'om tumanida yashagan. Ishtixon tumanidagi Sheyxlar, Urgut tumanida To'g'ali, Mirzabog'lon, Past Darg'om tumanidagi Oytamg'ali, Qora, Jayra(Jayli ) qishloqlarida minglar jamaosi hozir ham yashaydi.

Oshiq ota qabristoniga nafaqat Past Darg'om, balki Oqdaryo va Ishtixon tumanlaridan minglar, turkmanlar jamaosi dafn etilgan. Tarixchi olim Azim Malikovning "Zarafshon vohasining turkiy etnonim va etnotoponomilar" asarida oqshiq minglarning tug'ali jamaosi tarkibida qurug' ekanligi va oqshiq nomli joy nomi mavjudligi keltirilgan. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida keltirilishicha, minglar o'zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalaridan bori.

Ming qabilasi XV asrdan Mavarounnahr hududida o'zbek qabilasi sifatida tilga olingan. Ular Samarcand viloyati, Farg'on va Buxoro, Surxondaryo, Xorazm, Tojikistonning Hisor tumanida yashagan. Zarafshon vodisida yashovchi minglar uchta yirik urug'ga, bu urug'lar o'z navbatida yana bir qancha kichik urug'larga bo'lingan: to'g'ali (axmat, chag'ir, to'y namoz, oqshiq va boshqalar); bog'lon (chibli, qora, mirza va boshqalar); uvoq tamg'ali (alg'o'l, chaut, jayli, o'ramas, to'qnamoz, kiyuox'ja, yarat) urug'lari. Qo'qon xonligi hukmdorlari minglar sulolasidan bo'lgan.

Buxoro vohasida yashovchi minglar ham Buxoro amirligi siyosiy hayotida faol qatnashgan. Xonlikdagi muhim mansablarni minglarning bekleri egallab kelgan. O'rata va Urgut bekleri ham minglardan bo'lgan. Past Darg'om tumanida o'rta asrlarda Samarcand va Buxoroni bog'lovchi savdo yo'lli yoqasida To'g'ali nomli mahalla bo'lgan. Bu mahallada minglarning oqshiq urug'i yashagan. Oqshiqlar Amir Temur qo'shinida xizmat qilgani bois ularning sardoriga harbiy yurishlarda alohida xizmatlari uchun tug' berilgan. Shuning uchun oqshiqlar yashagan hudud To'g'ali nomi bilan yuritilgan.

Amir Temurning "Temur tuzuklari" asarining "Katta nog'ora va bayroq ato etish" tuzugida "Amr qildimki, o'n ikkita amirlarning har biriga bitta bayroq va bir nog'ora berilsin, Amir ul umaroq bayroq va nog'ora, tumon tug'i va chortug' taqdim etsinlar. Mingboshiga esa bir tug' va karnay bersinlar. Yuzboshi va o'nbosboshiq bit-tadan katta nog'ora bersinlar. Aymoqlarning amirlariga bittadan burg'u taqdim etsinlar. To'rt beglarbeginning har biriga bittadan bayroq, nog'ora, chortug' va burg'u, qaramog'imdag'i qirq aymoqdan o'n ikkitasiga tamg'a berilsin. Tamg'aga yetmagan yigirma sakkiz aymoq boshilqlariga ulus amirligini berdim", deylidi. Sharafidin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida Amir Temur qo'shini yettiq qo'lli (qism) dan iborat qilib tartib berganini yozadi. Yetti qo'ldan uchinchi qo'lini amir Muhammad Xurosoniy boshqargan. Oshiq ota ziyoratgohidagi qabrtoshda Amir Haydar ibn Muhammad Xurosoniy nomi yozilgan. Oshiq ota ana shu Amir Muhammad Xurosoniyning nisbasi, ya'ni xalq uni Oshiq ota deb ulug'igan. Amir Haydar esa Muhammad Xurosoniyning o'g'li bo'lib, 958-yilda vafot etgan.

## IMOM OTA ZIYORATGOHI

Past Darg'om tumanı Imomjon tarixiy yodgorligi mahallasi Imom ota ziyoratgohi mavjud. Abu Tohirxoja-ning "Samariya" asarida Imom ota mozori Anhor tumanida, ushbu otdan mashhur bo'lgan o'rnidir. Uning tarjimasi holi belgilik emas. Sog'onasi uzuncha tepega o'xshaydi, deb keltirilgan. Tarixiy manbalarga ko'ra, Qavchin qabi-

lasining Imom nomli urug'i mavjud. Shu urug'dan Amir Husayn Qavchin yashab o'tgan. Amir bo'lgani uchun u kishini xalq Imom ota deb atagan. Abulg'ozzi Bahodir-xonnning "Shajarayi turk" asarida yozilishicha, turklar ulug' kishilarni ota deb ulug'lagan. Zangi ota, Qilich ota, Cho'pon ota kabi. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida qavchinlar urug'i haqida quyidagi ma'lumot keltirilgan: "Qavchin o'zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri. Chig'atoy ulusining eng yirik to'rt qabilasidan biri (jaloyir, barlos, orlot) sanalgan.

Chingizxon bu 4 qabilani to'rt ming jangchi bilan o'g'il Chig'atoyga berib, ularning har qaysisi uchun tegishli hudud ajratgan. Ular bir qancha urug'larga bo'lin-gan. Eng yiriklari beguzuv, balxi, ko'rpauchuvish, bo'zchi, kashmiri, sulaymon, imom, bo'yin, tug'ali, po'lati, shera-li, tuyabo'yin bo'lgan. Arxeolog V.Vyatkin 1902-yilda "Samarcand viloyati tarixiy-geografik materiallari" asarining "Anhor tumanı" bo'limida qadimiy Imom qishlog'i Qavchin soyining yonida joylashganligini yozib goldirgan. Imom ota qabristonida Xoja Amir Husayn ibn Amir Hasan Qavchining 1400-yilda vafot etganligini hozirda saqlanib qolgan qabrtoshdan o'qiyimiz..

## NAJMIDDIN OTA ZIYORATGOHI

Bu joy tumanning Gumbaz qishlog'ida joylashgan. Tarixchi Azim Malikovning "Zarafshon vohasining turkiy etnonim va etnotoponomilar" asarida qipchoq qabilalarning bir tarmog'i Gumbaz deyiladi. Gumbaz urug'iga mansub Oqjahra ibn Bayram, Xonpo'lot Bahodir ibn Sayid Bahodir, Amir Muhammad ibn Amir Muhammad Ali kabilalar Nujiddin ota qabristoniga dafn etilgan.

## IFTIXOR SHAYX ZIYORATGOHI

Bu ziyoratgoh Qumariq qishlog'ida joylashgan. Iftixor shayx Yassaviya tariqatining shayxi bo'lib, XVI asrda yashagan. Olim Shayx Azizoning "Lamahot" asarida Iftixor Shayx haqida muhim manba yozilgan. Jumladan, Iftixor Shayx Makkada yetti yil yashagan va ulug' avliyolar bilan uchrashtagan. Makkadan qaytganidan keyin Qosim Shayx Azizonga shogird tushadi. Iftixor Shayxning qabri Samarcandning Anhor degan joyidagi Qumi qishlog'ida, ziyorat eting va tabarruk biling, deb yozilgan. Shayx ziyoratgohida Xollibek ibn O'rozalibek, Mirakon ibn Oybosh, Meliqlundan Yo'ldosh o'g'il nomlari yozilgan qabrtoshlar mavjud.

## ZORMON OTA ZIYORATGOHI

Tumanning Zormon mahallasidagi bu ziyoratgohga Amir Ismoil ibn Tug'bek ibn Sulaymon Samarcandyi (1428-yilda) dafn etilgan. Qabrtosh yilidan ma'lumki, Amir Ismoil Amir Temur va temuriylar qo'shinida xizmat qilgan ulus amiri bo'lgan. Aholi bu joyini aziz bilib ziyorat qilishadi.

## JO'YBOR SHAYX ZIYORATGOHI

Ziyoratgoh Ilm mahallasining Baqiroq qishlog'ida, qadimgi Jo'ybor qishlog'ida o'rniда qad rostlagan. Bu qishloqda buxorolik Jo'ybor shayxlari yashagan. Ziyoratgohdagi qabrtoshlarning birida Jahon binti Shayx Shahobiddin (1416-yil) dafn etilgan nomi yozilgan. Azlartepa ziyoratgohi Sanchiqul qishlog'ida joylashgan. Bu joyda temuriylar shajarasiga mansub Darvesh ibn Darvesh Muhammad (1565-yilda) dafn etilgan. Darvesh ota ziyoratgohi Xonchorbog' qishlog'ida bo'lib, bu yerda temuriy Abdullaxoja ibn Darvesh (1554-yilda dafn etilgan) qabri mavjud.

Past Darg'om tumanida ko'plab tarixiy yodgorliklar, ziyoratgohlar, qabrtoshlar, tepaliklar mavjud bo'lib, tad-qiqot ishlari davom etmoqda.

Sharifjon SAXATOV  
tarixchi, muzeyleshunos.

## Hunarmandlar mahsulotiga AQSh va Turkiyada xaridor ko'p

Bugungi kunda viloyatimizda "Hunarmand" uyushmasiga a'zo bo'lgan hunarmandlar 2345 nafarni tashkil etadi. Ularning aksariyati o'zlarini yasagan, to'qigan yoki tikkan mahsulotlarini xorij davlatlariga ham sotmoqda. Buni shu yilning birinchi choragida 2 million AQSh dollari miqdorida hunarmandchilik mahsulotlarining ichki va tashqi bozorlarga sotilganidan ham bilish mumkin.

Xo'sh, chetda samarcandlik hunarmandlarning qanday mahsulotlari xaridor ko'p, degan savol tug'ilishi mumkin. Tabiiyki, eksport qilingan mahsulotlar Samarcand nomi, tarixi, bugunini aks ettrib beradigan ashyolar bo'imoqda. Ya'ni, chetda eng ko'p talabga ega bo'lgan yo'nalishlar, asosan, yog'och o'ymakorligi, mis o'ymakorligi, kulolchilik, kashtachilik, miniatyura va rang-tasvir san'ati, milliy liboslar, musiqa asboblari kabi yuksak badiy qimmatga ega hunarmandchilik turlari bo'ldi.

Ushbu yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan yurtimizning ustalari yaratgan noyob mahsulotlari Rossiya, AQSh, Qozog'iston, Turkiya, Evropa mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlarga eksport qilinaydi. Shu bilan birga, sayohatga kelgan xorijliklar bu mahsulotlarni xarid qilmoqda.

Alohi da t'kidlaydigan bo'lsak, bugungi kunda yog'och o'ymakori Mansur Asadov, kashtachi G'ulom Isayev, milliy liboslar bo'yicha dizayner Lena Ladik, miniatyura va rang-tasvir ustasi Mansur Nurillayev, milliy liboslar mutaxassisasi Hamida Inoyatova, akademik kulol Sharif Azimov o'z mahsulotlarni asosan Qozog'iston, Turkiya, Rossiya, AQSh va qator Evropa davlatlariga mahsulotlarni sotmoqda.

Shu o'rinda bir imkoniyatni ham aytmasak bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil 28-noyabrda "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarning qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qaror qabul qildi. Ushbu hujjat ijrosiga ko'ra, hunarmandchilik mahsulotlarni elektron savdo orqali sotishni yo'iga qo'yish borasida respublika bo'yicha yagona tizimga birkirtirilgan "Hunarmand" uyushmasining www.uzcrafts.com veb-sayti yaratildi. Ichki va tashqi bozorga mahsulotlar reklamasini namoyish etish maqsadida www.ihunar.uz savdo maydonchasi tashkil etildi.



Hozirda yuzlab hunarmandlarimiz ushbu sayt va platforma orqali yasagan mahsulotlarning narxini ko'rsatgan holda ijtimoiy tarmoqqa joylashtirib bormoqda. Masalan, bunday imkoniyatdan Urgut tumanida faoliyat yuritayotgan kashtado'z G'ulom Isayev, Samarcand shahrida yashovchi yog'och o'ymakori Mansur Asadov, Samarcand tumanida faoliyat yuritayotgan zargar Hasan Qurbonov, miniatyura va rang-tasvir ustasi Alisher Ochilov, milliy musiqa asboblari yasovchi Bobomurod Haydarov, kulollar Firdavs Berdiyev va No'mon Obloqulov samarali foydalanim, o'zlarini yasagan hunarmandchilik mahsulotlari reklammasini jahon elektron savdo maydonchalariga chiqarmoqda va savdosini tashkil etmoqda.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga bo'lgan yuksak e'tibor tufayli hunarmandlar mahsulotlari chetdan talab ortmoqda. Shundan kelib chiqib, 2025-yil oxirigacha hunarmandchilik mahsulotlarning ichki va tashqi savdosini miqdorini 10 million AQSh dollaridan oshirishni maqsad qilganimiz.

**Umid HAKIMOV,**  
"Hunarmand" uyushmasi viloyat boshqarmasi boshlig'i.



## Кексалик касаллик эмас

**1985 йилдан буён, 45 ёшимдан II гурух ногирониман. Ёшлигимда тўзула ҳашаротларига қарши заҳарли дориларни самолёт бортига жойлаштирганим учун касалланиб, жигар циррозидан даволаниб келаман. Аслида гап менга тиббиётчилар қўйган ташхис ҳақида эмас.**

Бир неча йилдан beri domimiy soғloqlashiришаш mashqlari bilan shugullanadigan tengdoşlariham va boşqalar xar kungni yuriši mashqlariidan sportga jalb kilişib bўyicha mutasaddisi, professor Xamrokul Rofigev tomonidan útkaziladigan barča musobakałardar doim qatnashib kelaşan. Bu kabib sport musobakałarini, xech bўlmaganda, omaviy yuriši mashqlarini xar bir maħallada tashkil etishi myumkin.

Men jokorda bējiz şəhşəm va soğligim ҳaқida maъlumatlarini keltiriyamdim.

Çunki kúçhiliç kexkalardan 70

va hoxa 60 ўşdan oshgandan

kéjin búfim kexkalliclari,

kon bosim yúrçiligidan

shikояt kiliib, dúxhirma

dúxhirta yordadi. Lekin xar

kunu piéda yuriñg, deşa üzim

zúrga yuriñm, deşa yu işha

xaſsala qilmaidai. Vaħolani-

ki, piéda yuriñsib, kekkal-

lalar tapşuňnika tush-

ib қoladi, sport esa jaħ-

ħarġħiha, qalmaħat-

ħarġħiha, qalmaħat-